

Nuh kemasi



09:10 / 10.09.2019 7753

1

Odam alayhissalomdan keyin

Alloh taolo odam alayhissalom zurriyotlariga baraka berdi. Ular ichida ko'plab o'g'il va qizlar bor edi. Odam alayhissalom zurriyotlari tarqalib, ko'paydi. Agar odam alayhissalom qaytib kelib, bolalarini ko'rganlarida, tanimay qolardilar. Agar u zotga: «Bu sening zurriyoting» deyilsa, ko'p ajablanardilar. U zot: subhanalloh! Bular barchalari mening bolalarimmi? Bularni barchasi mening zurriyotimmi?!

Odam alayhissalom zurriyotining ko'p qishloqlari bor edi. Ular ko'plab uylar qurishgan edi. Ular yer haydar, ekin ekar va istiqomat qilardilar.

Insonlar otalari odam alayhissalom dinida edilar, Allohga ibodat qilar va unga hech narsani sherik qilmas edilar!

Insonlar, otalari odam va robbilari Alloh bo'lgan bitta xalq edilar.